



АРХИТЕКТУРА (ТУРЛАРИ БЎЙИЧА)

Toshkent arxitektura-qurilish
instituti huzuridagi tarmoq markazi

**ZAMONAVIY
SHAHARSOZLIKDA AN'ANALAR
VA INNOVASIYALAR**

TOSHKENT-2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 1023-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TAQI, dots. Talipov M. A.

Taqrizchi: TAQI, a.f.n., dots. Usmanov M.S.

O'quv -uslubiy majmua TAQI Kengashining 2020 yil 4 sentabrdagi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Mundarija

I.ISHCHI DASTUR.....	4
II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III.NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	20
IV.AMALIYMASHG'ULOT.....	72
V.KEYSLAR BANKI.....	86
VI. GLOSSARIY.....	98
VII.ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	114

ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganishlari hamda zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha malaka va koʻnikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur mazmunida xorij taʼlim tajribasi, rivojlangan davlatlarda taʼlim tizimi va uning oʻziga xos jihatlari yoritib berilgan.

“Zamonaviy shaharsozlikda anʼanalar va innovatsiyalar” modulidan ishchi dastur “Arxitektura” va “QHALTE” taʼlim yoʻnalishlari sohasidagi Oliy taʼlim muassasalarida pedagogik faoliyatini olib borayotgan professor-oʻqituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari bayon etilgan. Dars mashgʻulotlari yangi texnologiyalarni qoʻllash qonun-qoidalari talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ishchi dasturda keltirilgan taʼlim texnologiyalarining har biri oʻzida oʻquv mashgʻulotini oʻtkazish shart-sharoiti toʻgʻrisida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va koʻzlangan natijalarni, oʻquv mashgʻulotining rejasi, oʻqitishning usul va

vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu oʻquv mashgʻulotlarining texnologik kartasini, yaʼni professor-oʻqituvchi mazkur oʻquv mashgʻulotida erishadigan maqsadi boʻyicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich taʼriflanishini ham oʻz ichiga oladi.

Ishchi dasturning konseptual asoslari qismida dastlab “Zamonaviy shaharsozlikda anʼanalar va innovatsiyalar” modulining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur modulning tarkibiy tuzilishi, oʻqitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, axborotlar berilib, soʻngra loyihalashtirilgan oʻqitish texnologiyalari taqdim qilingan.

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni “Zamonaviy shaharsozlikda anʼanalar va innovatsiyalar” modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, oʻziga xos xususiyatlari, ilgʻor gʻoyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar

hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy shaharsozlikda anʼanalar va innovatsiyalar” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini shaharsozlik sohasidagi innovatsiyalarga doir bilimlarini

takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Zamonaviy shaharsozlikda an'analar va innovatsiyalar” modulining vazifalari:

- shaharozlik sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi, qurilishni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, shaharlari rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish sohasidagi innovatsiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o'rganishga yo'naltirish;

- tinglovchilarda shaharsozlik sohasidagi innovatsiyalarning ilg'or texnologiyalariga doir olgan yangi bilimlarini o'z fanlarini o'qitishda o'rinli ishlata olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

MODUL BO'YICHA TINGLOVCHILARNING BILIMI, KO'NIKMASI, MALAKASI VA KOMPYUTENSIYALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

“Zamonaviy shaharsozlikda an'analar va innovatsiyalar” kursini o'zlashtirish

jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- shaharsozlik sohasidagi so'nggi yutuqlar, me'yorlar tizimi;
- shaharsozlik va landshaft sohasidagi fanlarni o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalar;

- shaharsozlik sohasidagi innovatsion g'oyalar;
- shaharsozlik sohasidagi dolzarb masalalar;
- shaharsozlikda hozirgi zamon muammolarini *o'rganib chiqishi* kerak.

Tinglovchi:

- shaharsozlik loyiha g'oyasini asoslash, uning mohiyatiga ko'ra loyihalash turlarini ajrata olish, me'yor va direktiv organlarining hamda xalqaro talablarga javob beradigan hujjatlar tuzish;

- shaharlarni rivojlantirish va obodonlashtirish loyiha tizimidagi yangiliklarni urganish;

O'zbekiston Respublikasining arxitektura va qurilish sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq eta olish;

- shaharsozlik sohasida dunyo bo'yicha erishilayotgan yutuqlardan xabardor bo'lish;
- shaharsozlik sohasida mutaxassilarni zamonaviy talab darajasida o'qitish mezonlarini ishlab chiqish;
- shaharsozlik yo'nalishida hozirgi kundagi muammolarni hal etish borasida *ko'nikmalarga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- loyiha g'oyasini asoslash grafanalitik modelidan foydalana olishi, shaharsozlik nazariyasi tarixi va zamonaviy tendeniylarini, xalqaro loyiha tajribalarini o'rganib chiqqan holda amaliyotda foydalanishi;
- kam energiya sarf qiluvchi, tabiatga zarar keltirmaydigan eko shaharlar loyihalash *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi: o'z fanlarini o'qitishda shaharsozlik sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi, loyihalashni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, eko shaharlarni loyihalash sohasidagi yangiliklarni o'rinli ishlata olish *kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.*

MODULNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

“Zamonaviy shaharsozlikda an'analar va innovatsiyalar” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;
- virtual amaliy mashg'ulotlar jarayonida loyiha va keys texnologiyalarini qo'llash.

MODULNING O'QUV REJADAGI BOSHQA MODULLAR BILAN BOG'LIQLIGI VA UZVIYLIGI

“Zamonaviy shaharsozlikda an'analar va innovatsiyalar” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Yangi arxitektura: nazariya va amaliyot”, “Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish” va boshqa blok fanlari bilan uzviy

bogʻlangan holda ularning ilmiy-nazariy, amaliy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

MODULNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Fan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish, ularning qurilish sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi, qurilishni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, energiya tejamkor binolarni loyihalash sohasidagi innovatsiyalar bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar arxitektura va qurilish sohasidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining ukuv yuklamasi, soat				
			Auditoriya ukuv yuklamasi			Kuchma mashg'ulot
			Jumladan			
			Nazariy	Amaliy		
1	Zamonaviy shaxarsozlik muammolari	2	2	2		
2	Kishlok xududlarining me'moriy-rejaviy yechimlarini takomillashtirish	2	2	2		
3	Landshaft arxitekturasida innovatsiyalar	2	2	2		
4	Ishbilarmonlik markazi – City ning maketli eskiz loyixasini yaratish	4	4		4	
5	Loyiha institutiga tashrif	6	6			6

6	Kurilgan yoki kurilayotgan shaxarsozlik ob'ektiga tashrif	4	4			4
	Jami	20	20	6	4	10

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-ma’ruza. Zamonaviy shaxarsozlik muammolari.

Shaharlar rivojlanishi bosqichlari. Uzbekiston shaxarlarning shakllanishi va hozirgi zamon axoli joylashuvi xususiyatlari. Shaxarsozlikda amal kiladigan omillar. Shaxarsozlikda mavjud an’analar, muammolar.

2-ma’ruza. Kishlok xududlarining me’moriy-rejaviy yechimlarini takomillashtirish.

Kishloklarning me’moriy-rejaviy yechimlari. Kishlok xududlarini funksional tashkil etish. Kishloklarni rivojlantirishda “Obod kishlok” dasturining urni. Kishloklarni loyixalashda va kurishda chet el tajribasi.

3-ma’ruza. Landshaft arxitekturasida innovatsiyalar.

Landshaftlar tugrisida tushunchalar. Landshaft arxitekturasining rivojlanish boskichlari. Xududlarni landshaft rejalashtirish masalalari. Uzbekistonda va chet mamlakatlarda landshaft arxitekturasining xolati.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

Amaliy mashg‘ulot: Ishbilarmonlik markazi – City ning maketli eskiz loyixasini yaratish

Shaharning me’moriy-badiiy ko‘rinishini tashkil etuvchi asosiy omillar. Me’moriy ansambl, dinamika, shakl va boshqa xususiyatlar. Ishbilarmonlik markazi tarkibiga kiruvchi ob’ektlar. Ishbilarmonlik markazi xududini funksional zonalarga bulish. Ishbilarmonlik markazining memoriy-badiiy yechimini shakllantirish.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR

1-ko‘chma mashg‘ulot. Loyiha institutiga tashrif Manzil: “O’zshaharsozlik LITI” DUK “Toshkentboshplan LITI” DUK “Qishloqqurilishloyiha” MChJ
“UNIQUE ARCH PROJECT” MChJ

Maqsad va vazifalar: 4 loyiha tashkilotidan biriga tashrif buyurib, 6 soat davomida O'zbekiston shaharsozligining dolzarb muammolari bosh rejalar loyihalarida o'zining yechimini qanday topayotgani o'rganiladi. Tashkilotning strukturasi va u yerda yaratilayotgan loyixalar bilan yakindan tanishiladi. Mahorat darsi tarzida tashkil etiladigan ushbu mashg'ulotlarga nomi yuqorida qayd etilgan tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb etiladi.

Topshiriq: Tinglovchilar loyiha tashkilotlariga tashrif chog'ida olgan ma'lumotlari asosida 10-12 bet hisobot yozib fan o'qituvchisiga topshiradilar. Hisobotda loyiha tashkiloti strukturasi, u yerda amalga oshirilayotgan loyiha ishlaridan lavhalar matn va fotosuratlar orqali bayon etiladi.

2-ko'chma mashg'ulot. Qurilgan yoki qurilayotgan shaharsozlik ob'ektiga tashrif (6 soat)

Manzil: Toshkent shahrida barpo etilayotgan yoki qurib bitkazilgan "City" lar, turar-joy majmualari, "Botanika bogi", yirik shaharsozlik inshootlariga tashrif buyuriladi.

Maqsad va vazifalar: Ob'ektlarga tashrif chog'ida kurilish, arxitektura, landshaft arxitekturasi soxalarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishadilar.

Topshiriq: Tashriflar chog'ida to'plangan ma'lumotlar asosida 10-12 betdan iborat hisobot yozib fan o'qituvchisiga topshiriladi.

Ilova: Fan o'qituvisi hisobotlar asosida bayonnoma tuzib, rahbariyatga topshiradi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



• to'siqlar

Namuna: Shaharsozlar malakasini oshirishda shaharsozlik loyihalashning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

	<p>Shaharsozlik va landashft arxitekturasi fanining tomonlari</p>	<p>Shahar faoliyatidagi asosiy tushunchalar tahlil qilib, afzalliklari kamchiliklari va tushunib yetgan holda amalda tadbiq etila Shaharso sohas di. zlik ida zamon loyiha tahlili aviy lar , innova texnologiyal tsion ardan boxabar bo'lish va foydalana olish bo'yicha ma'lumotlar olish mumkin.</p>
	<p>Shaharsozlik va landashft arxitekturasi fanining kuchsiz tomonlari</p>	<p>Ba' n azariy bilimlarning ama foydalanishn liyotda ing qimma tligi.</p>
	<p>Shaharsozlik loyihalashda olingan bilimlarni hayotda tadbiq etish imkoniyatlari (ichki)</p>	<p>Hoz ekolo mua irgi gik mmolar dolzarblashib boryotgan urbanizatsiya</p>

		<p>jarayonlarida professio nal yo ndoshuv.</p>
	<p>To'siqlar (tashqi)</p>	<p>Ya innov texnologi ngi atсион ya- larning qimmatbaholigi.</p>

«Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga

imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida

individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



1. Trenner-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



2. Trenning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi



3. Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma



4. Natijadagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan keyin, trenner tomonidan tahlillar

Namuna:

Asosiy tushunchalar

Shaharsozlik		Urbanizatsiya		Ekologiya	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi»

– oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<p>1-bosqich: Keys va uning axborot taʼmi bilan tanishtirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
<p>2-bosqich: Keysni aniqlashtirishva topshirigʻni belgilash</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<p>3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash

<p>4-bosqich: Keys yechimini</p> <p>echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
---	--

Keys. Toshkent viloyatining Bekobod tumanida yangi kichik shahar loyihalash taklifi ishlab chiqish jarayonida ushbu hududga sanoat korxonalarining yaqinligi va ulardan chiqadigan zararli chiqindilar shahar aholisi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Sanitar-himoya hududini joylashtirish uchun yetarli hudud yetishmovchiligi loyihani inqiroz yoqasiga olib keldi. Yuzaga kelgan muammoni hal qilish chora-tadbirlari ko'rib chiqilishi jarayonida sanoat korxonalarining zararlilik darajasi aniqlanib, zamonaviy texnologiyalar yordamida uning zararlilik darajasini kamaytirish, ya'ni zamonaviy filtr uskunalari o'rnatish, sanitar-himoya hududini imkon qadar zaharli gazlarni qaytaradigan daraxtlar turlarini tanlagan holda loyihalash taklifi kiritildi.

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhlarda).
- Olingan natijalar asosida muammoni hal qilish yo'llarini ko'rib chiqish (juftliklardagi ish).


«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: “Zamonaviy shaharsozlik loyihalashda amalga oshirilayotgan eko shaharlar texnologiyasida shaharning zararli chiqindi chiqarishi 100% ga kamaytirilmoqda”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida

individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



qanday omil?

- Kelajakda aholining o‘shish jarayoni
- - Demografik omil;
 - - Tabiiy omil;
 - - Ijtimoiy omil;
 - - Iqtisodiy omil;



Qiyosiy tahlil

- Aholi sonining oshishi jarayonini tahlil qiling?



Tushuncha tahlili

- Aholi soni
- Shahar kengayishi



Amaliy ko‘nikma

- Shaharlarning aholisi ko‘payishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlili

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-ma'ruza. Zamonaviy shaxarsozlik muammolari.

Reja:

1. Shaharlar rivojlanish bosqichlari
2. Uzbekiston shaxarlarning shakllanishi va hozirgi zamon axoli joylashuvi xususiyatlari
3. Shaxarsozlikda amal kiladigan omillar
4. Shaxarsozlikda mavjud an'analar, muammolar, sohadagi innovatsiyalar.

Tayanch iboralar: Shaxarsozlik goyalari, axoli joylashuvi, megapolis, aglomeratsiya, urbanizatsiya.

Dastlabki shaharlar hunar inson faoliyatining alohida tarmog'i sifatida shakllana boshlagan davrda, jamiyatda mehnat taqsimoti vujudga kelishi natijasida shakllandi. Shaharlar harbiy istehkomlar (qal'a shaharlar) va savdo manzilgohlari sifatida shakllana boshladi.


Shaharlar vaqt o'tishi bilan rivojlanish jarayonida jamiyatning talablariga mos ravishda shaklini o'zgartirgan. Shakllangan shahar o'z navbatida, jamiyatning hayot tarzi kuchi bilan aholisi dunyoqarashiga ta'sir etgan. Ijtimoiy va funksional sharoitlar bilan bir qatorda geografik muhit va iqlim ham shahar shakllanishining muhim omiliga aylandi.

Geografik muhit jamiyat taraqqiyotining tabiiy bazasi bo'lgan holda doimo inson jamiyatiga ta'sir etadi, biroq tabiat sharoitlarining har xil xususiyatlari atrof-muhit shakllanishiga qattiq ta'sir qilishi mumkin, uning rivojlanishini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin.

Shaharlar qurilishi prinsiplari haqida dastlabki yozma va arxeologik ma'lumotlar shahar madaniyatining qadimgi markazi hisoblanadigan Qadimgi Messopotamiyaga tegishli.

Eramizdan oldingi V asrdayoq tarixchi Gerodot qadimgi davrning eng yirik shaharlaridan biri Vavilon to'g'risida ma'lumot bergan. U kvadrat shaklidagi yirik shahar bo'lgan. Undagi keng ko'chalar dunyo tomonlariga qaratilgan va to'g'ri burchak ostida kesishgan. Tepalikda esa hukmdor saroyi joylashgan bo'lib, u bog' xiyobonlari va tepalik yon bag'rida joylashgan turar-joy kvartallari bilan bog'langan. Shahar ko'chmanchilar hujumidan himoyalani uchun baland devor bilan o'rab olingan. Quyuq ko'kalamzorlar va ariqlar cho'lining issiq shamollarini yumshatib

turardi. Ko'chalarning to'g'ri burchakli loyihalaniishi bunday iqlim sharoitida shahar hududini kerakli miqdorda shamollatish imkonini bergan.



Vavilon shahrining rejaviy sxemasi (er.avv.2000 y.).

Shaharsozlik antik davrga kelib gullab-yashnadi. Grek shaharlarida *gippodam sistemasi* deb nomlanuvchi aniq to'g'ri burchakli prinsipga asoslangan ko'chalar loyihasi keng tarqaldi. Qachonlardir Rim imperiyasi tarkibida bo'lgan shaharlarda bu sistema keyinchalik ham rivojlandi. Bu sistema aloqalarning qulaylashuvi va issiq iqlim sharoitida hududni yaxshi shamollatishga imkon beradi.

Qadimgi hind traktati Manasarada to'g'ri burchakli sxemaga asoslanagan shaharning rivojlangan shakli haqida yozilgan. Shuningdek, issiq iqlimli sharoitda shahar qurishda eng qulay joy tanlash printsiplari ham keltirilgan.

MDH davlatlari orasida mashhur shaharlardan biri qadimgi Xorazmdagi Jomboz Qal'a shahri er.avv. IV asrda shakllangan. Shahar ikkita jamoa uylari, ular orasidan olov ibodatxonasiga olib boruvchi ko'chadan iborat bo'lgan. Jamoat uylari loyihasida shaharning muntazam rejasi aks etadi.

Keyingi davrda feodallik davrida shaharsozlikda ko'chalarning radial-xalqasimon tizimi tarqala boshlandi. Bu usul qal'a atrofida hunarmandlar manzilgohlari shakllanishi asosida vujudga keldi.

Hunarmandlar va savdogarlar manzilgohlari o'z markazlariga – bozor maydoni va boshqarma binosiga ega bo'lgan. Odatda, hunarmandlar manzilgohlari atrofi o'zining devor va minoralari bo'lgan yana bir qal'a bilan o'rab olingan. Bu davrda quruqlik va suvdagi savdo yo'llari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shaharga qaytib kelgan aholi joylashishi yo'lining ikkala tomonida amalga oshgan, markazdan esa ko'chalar radial yo'nalishda tarqalgan. Radial savdo yo'llari, xalqasimon istehkomlar bo'lgan yo'laklar

tizimi ko'chalar tizimining radial-xalqasimon strukturasi shakllantirdi, bu tizim ko'pgina zamonaviy shaharlarda saqlanib qolgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shaharlarning o'sishi bilan shaharsozlik nazariyasi ham rivojlandi. Bu davrda Vena, Berlin, Parij, London kabi yirik shaharlarning qayta rejalash loyihalari ishlab chiqildi.

Rekonstruksiya qilinayotgan, yangi, shuningdek, nazariy shaharlarning ko'kalamzorlashtirilgan hududlari tizimi loyihalash tizimining ajralmas qismi sifatida loyihalandi. Aholining shaharga oqib kelishi yuqori ko'rsatkichga yetishi va bu bilan qurilmalarning zichlashishi kuzatilgan. XIX asr shaharsozligi shahar aholisining me'yoridan ortiq darajada zichligi, iloji boricha ko'proq aholini kamroq joyga joylashtirishga harakat qilish bilan ajralib turadi.

Ko'pgina yirik shaharlar markaziy tumanlarida turar-joylar zichligi ba'zan 80-90 %ga yetgan. Uylar to'xtovsiz yuqoriga o'sa boshlagan, landshaft buzilgan, daraxtlar nobud bo'la boshlagan, tarixiy shakllangan me'moriy ansambllar buzilgan. Qurilmalar orasidagi masofalar bir qancha pogonalardagi avtoyo'llar, to'xtash joylari, omborlar va boshqalar bilan band etildi.

XIX-XX asrda chet davlatlarda sekin-asta ot kuchi o'rnini mexanik transport egallay boshladi. Avtomobillashtirish rivojlanishi eski ko'chalar tizimini yaroqsiz holga keltirib qo'ydi va bu narsa XX asr shaharlari inqirozida o'z aksini topdi. Savdo-moliyaviy va sanoat firmalari joylashgan hudud shahar markaziga aylandi. Shahar markaziy qismida hashamatli uylar qurila boshlandi, shahar chetida esa kulbalar joylashgan. Fabrika va zavodlar atrofida tabiiy ravishda qulayliklarga ega bo'lmagan turar-joy poselkalari paydo bo'la boshladi. Markazning hashamatli kvartallari va qulayliklarsiz chekka qismi orasidagi keskin qarama-qarshilik kapitalizm rivojlanishi davri uchun xosdir.

Rivojlangan davlatlar shaharlari arxitekturasi ularning etnik tarkibi kabi murakkab va xilma-xil. Afrika va Osiyo davlatlarini ko'rib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, ba'zilarining chegaralari hududning etnik va tarixiy xususiyatlarini hisobga olmagan holda yirik hukmron davlatlar ta'siri doirasini ajratish natijasida paydo bo'lgan. Ko'pgina shaharlar tabiiy boyliklar jamlangan va mustamlakachi davlatlarga olib ketish uchun qulay joylari bo'lgan hududlarda shakllangan.

Mustamlaka davlatlar urbanizatsiyasi yirik kapitalistik davlatlar shaharlari rivojlanishidan sezilarli darajada farq qilgan. Yevropada kapitalizmning rivojlanishi sanoat sohasiga moslashgan shaharlarning shakllanishiga olib keldi. Sobiq

mustamlaka davlatlarda iqtisod jahon kapitalistik bozorida agrar-xom ashyo bazasi sifatida rivojlandi, ko'pchilik shaharlar esa aholining dehqonchilik bilan shug'ullanishidan kelib chiqib hunarmand-savdogarlik sohasi bo'yicha rivojlandi.

Yaqin sharqning ko'p shaharlari boy tarixga ega. Bu yerda qadimgi finikiyaliklar va rimliklardan qolgan manzilgohlar xarobalarini uchratish mumkin. Shaharlar qadimdan qolgan, xalqaro savdo yo'lida joylashgan manzillarini saqlab qolishgan. Istehkomlar bilan o'ralgan bu shaharlar markazlari o'z tarkibiga qadimiy kvartallar, arxitekturasi ajoyib bo'lgan ibodatxonalar, masjid va bog'larni kirgazgan. Kub shaklidagi qadimiy uylar o'zaro bog'lanib, yagona turar-joy massivlarini tashkil etadi. Ko'p millatli aholi alohida bo'lib yashashgan. Har bir ijtimoiy va milliy guruh alohida kvartallarda joylashib, bir-biri bilan aralashib ketmagan. Bu masalada Damashq, Iyerusalim, Beyrut shaharlari misol bo'la oladi. Fes, Rabot, Tunis va boshka shaharlarda hudud feodal o'tmishdan qolgan aniq funksional qismlarga ajralgan. Hududni hunarmand-savdo va turar-joy tumanlari, ma'muriy va ibodat markazlari, qishloq xo'jalik hududlariga ajratish mumkin.

Yevropa kolonizatsiyalash davrida an'anaviy iyerarxiya buzildi. Masalan, Jazoir shahrida eski kvartallar ustidan Yevropa tipidagi binolar qatori joylashtirilgan yangi ko'cha trassalari yotqizildi. Harbiy, transport va savdo punktlariga bo'lgan ehtiyoj tufayli yevropaliklar baland yassi hududlarda bir-biriga o'xshash shaharlar qurishdi, biroq, ular bosib olgan shaharlar madaniyati yodgorliklarida namoyon bo'ladi. Qadimgi saroylar zamonaviy baland firmalar binolari bilan raqobat qiladi, masjidlar – mustamlakachilar cherkovlari bilan, an'anaviy hunarmandchilik ustaxonalari – fabrika va zavodlar bilan.

Madina – Rabotning eski shahar yadrosi (Marokashning poytaxti) – o'zida Qirol saroyi va qadimgi mustamlakachilar ma'muriyatini jamlagan katta Yevropa kvartallari bilan o'ralgan. Bu binolar hozirgi kunda milliy ma'muriyat tomonidan band etilgan.

Sahroi kabirning vodiy shaharlari ham rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tishdi. Oq va yorqin ranglarga bo'yalgan an'anaviy kulbalarga milliy uslubda yaratilgan hashamatli binolar bo'lgan kvartallar qo'shildi.

Ko'rsatilgan hududning umumiy shahar ko'rinishi bu xususiy yer egaligi natijasida shahar hududi zich qurilmalar shakllanishiga qadar mayda yer bo'laklariga bo'lindi. Shahardagi barcha hayotiy noqulayliklar shuning oqibatida vujudga kelganki, yer rentasi uning bemalol rivojlanishiga xalaqit beruvchi shaharning o'rta asr tuzilishini aks ettiradi. Barcha oldingi davrlar shaharsozligi alohida ansambl uchun, kam hollarda ansambllar sistemasi uchun katta bo'lmagan hududlardan foydalandi. Shaharlar alohida ko'chalar qurilib, sekin-asta shahar maydonini egallash yo'li bilan qurilgan.

Osiyoning ko'pgina yirik shaharlari temir yo'l va avtomagistrallar bilan qismlarga ajralgan. Kichik shaharlarning mustaqilligi ahamiyati


yo'qola boshladi. Shaharlar yagona sistemada birlasha boshladi va aglomeratsiyalarni vujudga keltira boshladi. Hindistonda Osiyo bo'yicha eng yirik ikkita aglomeratsiya shakllandi – Kalkutta va Bombay aglomeratsiyalari.

Kalkutta – 30 ta yo'ldosh shaharlari bo'lgan transport, savdo va ma'muriy markaz. Kalkuttaning toshli markaziy qismini xom g'ishtdan qurilgan kulbalarda yashovchi zichlashgan ko'plab kambag'al kvartallari o'rab olgan. Bombay markazi chetida ko'plab Yevropa tipidagi ko'p qavatli uylar joylashgan, magistrallar bilan qismlarga ajratilgan. Bu hududga hunarmandlarning betartib qurilgan kvartallari, zavodlar maydonchalari ulanib ketgan. Boshqa joylarga nisbatan bu yerda puldorlarning hashamatli saroylari va kambag'allar kulbalari orasidagi keskin farq yaqqolroq namoyon bo'lgan. Hindistonning eng yirik shaharlarida hali-hanuz turar uylarda zamonaviy jihozlash va transport aloqalari, yashash hududida muhandislik va sanitar-gigiyenik holatlarining ortda qolishi muammolari yechilmagan.


Kelajak shaharlarni loyihalash uchun hozirgi ahvolga ob'ektiv baho berish kerak va alohida o'tmish shaharsozlik konsepsiyalarini ko'rib chiqish lozim. Shaharsozlik sohasida sotsial-utopistlar orzulari insonning garmonik rivojlanishi va ijtimoiy adolatga yordam beradigan shaharlar yaratishga asoslangan edi. Utopistlar g'oyalari shaharsozlikning keyingi rivojlanishiga, ayniqsa shaharlar aholisini me'yorlashtirish muammolari bo'yicha maishiy xizmat ko'rsatishni umumlashtirish, bog'-shaharlar yaratish g'oyalari katta ta'sir ko'rsatadi.

1898 yili E. Govard radial xalqali tarxiy tarkibli bog'-shahar g'oyasini taklif qildi. Shahar keng radial xiyobonlar bilan olti qismga ajratilgan aylana shaklda. Markaziy ma'muriy-jamoat maydoni park bilan o'rab olingan. Turar-joy xalqasi ichida yashil belbog' bo'lib, unda maktablar va sport inshootlari joylashgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi va aholi

dam olishi uchun katta shaharning tashqi qismi ajratilgan. Shu tarzda markaziy park va yashash hududining yashil belbog‘i o‘zaro va shahar atrofi hududi bilan xiyobonlar orqali bog‘lanib, yagona sistemani tashkil etadi. Govardning nazariy modeli har bir alohida holat uchun yechim topish imkonini berdi.



3- rasm. E.Govardning bog‘-shahar loyihasi.
a – tarh: 1 – jamoat binolari joylashgan markaziy park; 2-sayrga mo‘ljallangan xrustal galereyalar; 4 – maktab; 5 – cherkov; 6 – sanoat hududi; b – bog‘-shaharni hajmiy-fazoviy rekonstruksiyasi (L.B.Raptovning grafik rekonstruksiyasi)



Bunga qarama-qarshi XIX asr oxirida ispan injeneri Soria tomonidan “**chiziqli shahar**” g‘oyasi ilgari surildi.

Arxitektor I.Leonidovning Magnitorsk shaxri uchun bergan loyihaviy taklifida shaharning rivojlanish jarayonida asosiy qismlari orasida garmonik nisbatni topishga intilish aks etgan. Bu yerda shahar sanoat qismiga olib boruvchi, turar-joylarga parallel joylashgan madaniy, sport, meditsina va boshqa jamoat binolari va inshootlari bilan qurilgan shosse bo‘ylab rivojlanadi.

N.Milyutin shahar rivojlanishining funksional-oqimli chizmasini taklif qildi. Bunda sanoat qismi turar-joylarga va boshqa funksional qismlarga parallel holda joylashadi. Bu g'oya ba'zi yangi zamonaviy shaharlar bosh rejalariga asos qilib olindi. Arid (kurg'oqchil) iqlim sharoitlarida qabul qilinishi mumkin bo'lgan eng qulay shahar tarxii tarkibi bo'lib to'g'ri chiziqli tarxii tarkibni ko'rsatish mumkin.

Issiq quruq iqlim sharoitida insonning yashashi uchun birinchi navbatda suv zarur. Uni qandaydir yaqinroq daryodan ko'plab kilometr uzoqdan kanallar yordamida olib keladilar. Kanalning qirg'og'ini suv yuvib ketmasligi uchun odamlar uni to'g'ri qilib ko'rganlar, ko'p hollarda kanallarni tekis hududlarda qurganlar. Bundan kanallarga parallel va perpendikulyar ko'chalar kelib chiqqan.

To'g'ri chiziqli tarxii tarkib bir qancha xususiyatlarga ega:

- u turar-joylar hududlarini ish va dam olish joylariga maksimal yaqinlashtirish imkonini beradi;
- shahar jamoat markazini keyinchalik rivojlantirish imkonini beradigan to'g'ri chiziqli qilib kurishni belgilaydi;
- transport va piyoda yo'llar kommunikatsiyalari tizimi qisqaradi va ularni tashkil etish yengillashadi. Ammo chiziqli tarkibi ko'plab kilometrga rivojlanganda o'zining tarkibi va tarxii birligini yo'qotishi mumkin.

Ba'zi arxitektorlar rejalashtirishning radial-xalqali chizmasidan foydalanish mumkin deb hisoblaganlar. Ammo bu holda turar-joylar bilan o'ralgan shahar markazi rivojlanish imkoniyatidan mahrum, sanoat korxonalari esa, shaharning o'sishi bilan turar-joylar ichida bo'lib qoladi.

20-yillar oxirida N.Ladovskiy radial-xalqali va to'g'ri chiziqli chizmalarni tadqiq qilib, shaharning yangi parabolik tarxii tarkibini taklif qildi. U shaharning barcha qismlarini mavjud markazni saqlab qolgan va rivojlantirgan holda bir tekisda rivojlantirish imkonini beradi. Uni eski markaz atrofida bukilgan N. Milyutin tug'ri chiziqli sxemasi deb ko'rish xam mumkin.

1922 yili Le Korbyuze o'zining 3 mln. kishilik markazida yuqori qavatli minorali uylari bo'lgan zamonaviy shahar loyihasini kashf etdi. Bunda markazda 1 mln., ko'kalamzor joylarda esa 2 mln. aholi yashashi ko'zda tutilgan. Bu shahar markazlashtirilgan rejasining kompozitsion o'qi bo'lib, baland imoratlar bilan qurilgan xiyobonlar xizmat qiladi. Shaharning markaziy qismida tarxiga xoch shaklli, jamoat va ma'muriy mo'ljalidagi 60 qavatli imoratlar joylashadi. Markaz atrofida 6 qavatli uylar bilan qurilgan, egri-bugri rejali turar-joy tumanlari joylashadi.

Qolgan hududlar bog'lar va dam olish qismlariga ajratiladi. Turar-joy tumanlarining eni 50 m li asosiy ko'chalari bir-biridan 400 m masofada joylashadi.

Markazda aerodrom, uning tagida transport tuguni joylashadi, uning tagida esa yer osti jamoat transportining vestibyuli va stansiyalari joylashadi.

Le Korbyuze tomonidan 1933 yilda taklif etilgan «Quyoshli shahar» (Луچهзарный город) loyihasi yana ham mashhur bo'lib ketdi. Unda ochiq chiziqli tarkib g'oyasi

oldinga surilgandir. Bu g'oya biroz N. Milyutinning «Ijtimoiy shahar» loyihasini takrorlaydi.

1950 yili Le Korbyuze hind arxitektorlari bilan Hindistonning Panjob va Xariana shtatlari poytaxti Chandigarx shahrining bosh tarxini ishlab chiqish va qurishda o'zining shaharsozlik g'oyasini amalga oshirdi. Chandigarx shahrining shaharsozlik konsepsiyasi issiq iqlim sharoitidagi shaharni rejalashtirish va qurishning namunasidir.

Le Korbyuze bu shaharni rejalashtirishning asosiy tamoyillarini quyidagicha shakllantiradi:

- shaharning asosiy kompozitsion o'qini janubiy-g'arbdan shimoliy-sharq tomonga yo'naltirgan (magistrallar bo'yicha joylashgan binolarni quyosh nurlaridan saqlaydi);

- shahar tarkibining to'g'ri chiziqchiligi (shahar hududi to'g'ri burchakli, o'lchami 800x1200 m li sektorlarga bo'lingan, ularniig har biri qurilmalarining rejasi, xarakteri va zichligi bilan bir-biridan farq qiladi. Aholining turli xil ijtimoiy qatlamlariga mo'ljallangan, qulaylik darajasi turlicha bo'lgan xizmat ko'rsatish muassasalarining tarkibi ham har xildir);

- shaharning ko'kalamzor tizimi turar-joy qismidan o'tuvchi ochiq ko'kalamzor hududlar ko'rinishida ko'zda tutilgan;

- umumshahar markazi shunday joylashganki, u shaharning barcha qismlariga bir xilda yetarlidir;

- sanoat shahardan tashqariga chiqarilgan;

- transport aloqasi turlarga bo'lingan, ko'cha va yo'llar oddiy va mantiqiy joylashtirilgan, yechimi muvaffaqiyatli hal etilgan.

1953 yilda grek shaharsozi K.Doksiadisning shahar konsepsiyasi mashhur bo'ldi. U kelajak shahrining va yangi fani ekistikaning (inson aholi joylari haqidagi fan) nazariy asoslarini ta'riflab berdi. Bu fan

insonning hayot ehtiyojlari uchun ulkan makonlarni tashkil etish muammolarini qamrab oladi. Doksiadis tomonidan ilgari surilgan, ko'rinishidan, yangi va hatto ekstravagant tuyulgan shaharlarni yagona megapolisga birlashib ketishi, tezlikda o'zining yangi tug'ilib kelayotgan ekologik holati oldida qoloqligini ko'rsatdi.

Shunga qaramay, biz bugungi kunda butun dunyoda aglomeratsiyalar paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida yetarli faktlarga egamiz. Doksiadisning kelajak aholi joylashuvi g'oyasini ko'rib chiqamiz.

XXI asr oxiri kelajak shahari muammosini tadqiq qilib, Doksiadis "egumenopolis" - shaharlarning gigant aglomeratsiyalarga o'sib o'tishi - shaklidagi kelajak aholi joylashuvi nazariyasini oldinga surdi. Doksiadis o'zining kelajak shahri nazariy asoslarida vaqt omilini (to'rtinchi o'lchov) asosiy deb tan oladi. U monotsentrik rejali dinamik shahar g'oyasini taklif qiladi, u shaharning o'sishida bir tomonlama rivojlanuvchi chiziqli tuzilmaga aylanadi.

Doksiadis nazariyasi bo'yicha dinamik shahar markazi tarkibi uning doimo o'sishi talablariga javob berishi kerak. Markaz ilgari tanlangan o'q bo'yicha erkin rivojlanishi lozim. Unda avval shaharning markaziy yadrosi joylashadi, u keyinchalik bir yo'nalishda rivojlanadi.

Doksiadis bo'yicha shahar o'z rivojlanishida to'rtta bosqichdan o'tadi «dinapolis» (bir yo'nalishda rivojlanuvchi monotsentrik shahar) va «dinametropolis» (bir nechta «dinapolis» larning parallel rivojlanishi) dan «dinamegapolis» (gigant-shaharlarning rivojlanishi) va shahar tuzilmasining oxirgi bosqichi – “ekumenopolis” bo'lib, bu yer shari butun kontinentlarini kamrab olgan shaharlar ko'rinishidagi bir tekis va muvozanatli aholi joylashuvi shakli.

Doksiadis dinamik shahar nazariyasiga asosan ekumekopolis bosqichining statikligi qarama-qarshidir, unda shahar o'sishi, to'la muvozanatga yetgach to'xtaydi. Bu g'oyaning birinchi salbiy tomoni - shaharning rivojlanish qonuniyatlari yoki bu mamlakatda shaharsozlikning ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olmay ko'rib chiqilgan.

Ikkinchidan esa, bu aholi joylashuvini tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va aholining etnik xususiyatlarini hisobga olmay standartlashgarishdir.

Doksiadis o'z g'oyasini Pokistonning yangi poytaxti Islomobod shahri bosh rejasida amalga oshirdi, shuningdek, uning g'oyasi u tomonidan Sudanning poytaxti - Xartum shahrini loyihalashda o'z aksini topdi.

Bizda va chet ellarda juda xilma-xil kelajak shaharlari konsepsiyalari mavjud. Dengizdagi shaharlar, ko'prik-shaharlar, voronka sifat, piramida shaharlar va xokazolar. O'z vaqtida bu utopiyalar to'g'risida arxitektura doktori A.Ye.Gutnov aytgan ediki, shaharlar bir necha yuz yil evolyutsiyaga ega bo'lgan. Shaharlarni odamlarning muloqot hududi sifatida saqlab qolish lozim. Buni aytish oson, ammo bu vazifani bajarish bugungi shaharni kelajak shahriga o'tmishni yo'qotmay, hozir bilan boyitib o'stirish qiyin. Arxitektorning shahar aholisi bilan dialogi natijasida paydo bo'ladigan shahar - bu xaqiqiy demokratik shahardir.

Yangi shaharlarning tarixiy chizmalari asosan *3 prinsipial yechimga* ega:

- shahar tarxining kompakt, radial-xalqali keyinchalik rivojlanish kelajagisiz;


-keng park yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarish qismlari bilan qamrab olingan tarixiy tarkibi siyraklashtirilgan shahar;

- parallel turar-joy, sanoat, jamoat markazlari, transport, dam olish va boshqa qismlardan iborat chiziqli tarkibli shahar.

Chiziqli shaharning bir qancha o'zgartirilgan g'oyasini amalda arxitektorlar L.Kosta va O.Nimeyerlar loyihasi bo'yicha yaratilgan Brazilia shahrining rejasida ko'rish mumkin. Mamlakatning ichkarisida, tropik kontinental iqlimli savannalarda

joylashgan shaharning qurilishi uch yildan ko‘proq vaqtda amalga oshiriladi. Shahar 500-700 ming kishiga

mo‘ljallangan. Hisob vaqtdan keyingi aholi joylashuvi yo‘ldosh shaharlarda amalga oshiriladi. Bu tabiiy sharoitlarni o‘zgartirish, zamonaviy arxitektura tamoyillari va Braziliya qurilish san’ati milliy an’analarini uyg‘unlashtirishning eng muvaffaqiyatli namunasidir.



Brazilia (Braziliya). Bosh tarh. Arxitektor L. Kosta

1 - Uch hokimiyat maydoni; 2-14 - vazirlik bo‘limi; 3 – kafedral sobor; 4 – madaniyat muassasalari bo‘limi; 5 – teatr; 6 – banklar va davlat muassasalari; 7 – savdo markazi; 8 – otella; 9 – radiotelevizion minora; 10 – sport markazi; 11 – munitsipalitet maydoni; 12 – politsiya; 13 – temiryo‘l vokzali; 14 – 16 – elchixonalar; 17 – turar joy kvartallari; 18 – bir tipdagi individual turar uylar; 19 – qasrlar tumani; 20-21 – botanika bog‘i; 22 – 23 – avtostansiyalar; 24 – Avrora saroyi – prezident qarorgohi; 25 – “Braziliya” oteli; 26 – yarmarkalar va savdo ko‘rgazmalari; 27 – otda yurish klubi; 28 – qabriston; 29 – aeroport; 30 – golf klub; 31 – rasadxona; 32 – xo‘jalik omborlari; 33 – tipografiya; 34 – depo

Hozirgi kunda ham arxitektorlar ideal shaharlar yaratish g‘oyalarini ilgari surishmoqda va bu g‘oyalarda ekologik zararsizlik va tozalik birinchi o‘rinda turibdi.

Albatta ekologik soflikni asrab qolish uchun optimal ko'kalamzorlar tizimini yaratish va chiqindilar chiqarishni nazoratga olish muhim. Arxitektorlar bu masalani hal qilish uchun harakat qilishmoqda va qator yutuqlarga erishishmoqda. Quyida zamonaviy shaharsozlikning eng samarali namunalari bilan tanishib chiqamiz.

Dunyodagi eng toza shahar bu – Masdar Siti. 2008 yilda dunyodagi birinchi karbonat anhidrid gazi chiqarmaydigan, oddiy avtomobillarsiz va chiqindilarsiz shahar – Masdar Siti qurilishi boshlandi.

6 km² maydonli ushbu shahar Birlashgan Arab Amirliklari hududidagi Abu Dabi shahrida quriladi, u 40-48 ming aholini o'zida jamlashi mumkin, shuningdek, undan ham ko'p turistlarni har kuni qabul qila oladi va unda barqaror rivojlanishning qat'iy prinsiplariga amal qilinadi.


Shahar yuqoridan qaraganda jimjimador konstruksiyalar bilan qoplangan va bu konstruksiyalar shaharni quyosh nuridan himoya qiladi.

Shaharda keng quyoshdan qizigan asfaltli maydonlar umuman bo'lmaydi, lekin bu ochiq fazoviy muhitlar bo'lmaydi degani emas, balki bunday hududlar turar-joy atmosferasiga moslashtirilgan holda yaratiladi.

Shaharda barcha energiya quyosh va shamol energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa qayta ishlanuvchi energiya manbalaridan quvvat oluvchi fotoelektrik panellar orqali ta'minlanadi. Chiqindilar qayta ishlanishi natijasida 99 %ga qisqartirilgan. Shaharda karbonat anhidrid gazini chiqaruvchi transport umuman qo'llanilmaydi, shahar ichida avtomobillarning ekologik modellari qo'llaniladi va keluvchilar faqat avtomobillardan birgalikda foydalanishi, hamda jamoat transportidan foydalanishlari mumkin.



Shuningdek, piyoda sayr qiluvchilar uchun uncha keng bo'lmagan va soya qilingan piyoda yo'llari loyihalangan va unda qulay mikroiklim yaratish choralari ko'rilgan. Arxitekturasi mamlakat an'analarini o'zida aks ettiradi. Mehnat sharoitlari esa xalqaro mehnat standartlariga javob beradi. Shahar barcha demografik guruhlar talablarini hisobga olgan holda quriladi. Shahar dizayni bilan arxitektor Norman Foster boshchiligidagi Foster + Partners kompaniyasi shug'ullanmoqda.





Masdar Sitining umumiy ko‘rinishi va shahar intereri.

Foster + Partners illyustratsiyalari

Janubiy Koreya zamonaviy shaharsozligi tajribasidan foto lavxalar

Asosiy kursatkichlar: Sondu shaxri – Sondu Siti, 40 % yashil xudud, velesoped yulaklari, suv xavzalaridan unumli foydalanish, tarixiy xududni saklab kolish, ishbilarmonlik markazini shakllantirish.







Uzbekiston Respublikasi tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri - Respublika miqyosidagi shahar kiradi.

Respublika hududi 447,4 ming km² ni, aholining o‘rtacha zichligi 53,1 odam km² ni tashkil etadi, ammo respublika alohida viloyatlari bo‘yicha zichlik 6,9 odam km² dan (Navoiy viloyati), 503,5 odam km² (Andijon viloyati) gacha tebranadi. Aholi eng zich joylashgan viloyatlar: Farg‘ona vodiysida - Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent va Samarqand viloyatlaridir.

Yangi shaharlar foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash asosida (Angren, Olmaliq, Nurobod, Quvasoy, Zarafshon, Yangiobod va boshqa shaharlar), qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishlash markazlari sifatida (Yangiyo‘l, Xo‘jayli, Chimboy shaharlari), energetika va kimyoni rivojlantirish asosida (Chirchiq, Navoiy, Bekobod, Guliston shaharlari), Nukus va To‘rtko‘l shaharlari esa ma‘muriy xo‘jalik markazlari sifatida tashkil topdilar.

100 dan 500 minggacha aholili katta shaharlarga 38,9 %; shahar posyolkalari orasida 39 % i 5 dan 10 minggacha aholili posyolkalarga; 43,1 % i esa 10 dan 20 minggacha aholili posyolkalarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi hozirgi zamon aholi joylashuvi va urbanizatsiyasining xususiyatlari:

- shahar aholisining kichik nisbiy soni;
- mahalliy aholining kam hududiy ko‘chib yurishi;
- shaharlar tarmog‘ida urbanistik tarkibning kam rivojlanganini ko‘rsatuvchi kichik va o‘rta shaharlarning ustunligi;
- shahar joylari tarmog‘ining voxalarda to‘planganligi;


- kichik va o‘rta shaharlarning iqtisodiy potentsiali kichik bo‘lgan holda sanoat korxonalari va shahar aholisining kam sonli yirik shaharlarda to‘planganligi;
- ko‘pchilik shahar va posyolkalar funksional tarkibining rivojlanganligi;
- shahar tashkiliy asosi, aholi joylariaro xizmat ko‘rsatish tizimi va ayniqsa ommaviy dam olish tarmoqlari kam rivojlangan maxalliy tuman markazlarining ustunligi;
- intensiv sug‘orish dehqonchiligi tumanlarida qishloq aholi joylashuvining mayda qishloqlardan iboratligi;
- qishloq urbanizatsiyalash jarayonida shahar va qishloq aholisi o‘zaro aloqalarining kuchayib borishida yirik qishloqlar rolining o‘zaro borishi.

Respublika uchun hamma regionlarda anchagina erkin mehnat resurslarining mavjudligi xarakterlidir, bu mehnat resurslari kerakli professional tayyorgarlikka ega emaslar.

Shaharlarning hozirgi rivojlanishi respublikada muntazam


urbanizatsiyalashish sharoitlarida kechmoqda. U jamiyatning barcha sohalarini qamrab, shaharlarning iqtisodiy ahamiyatiga, ularning ishlab chiqarishdagi va aholini ijtimoiy tashkil etishdagi rolga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar O‘zbekiston shaharlar tarmog‘i rivojlanishi va aholi joylashuvi xarakteri hamda aholi joylari tarmog‘i tarkibi o‘zgarishi, shahar aholi joylashuvi areallarining kengayishi bilan kuzatib borilyapti. Bu jarayonga aholi joylari tarmoqlarining nafaqat vohalarda shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, yangi, ilgari foydalanilmagan respublika yerlarining (Mirzacho‘l, Jizzax, Qarshi dashtlari, Markaziy Farg‘ona va boshqalar) muntazam o‘zlashtirilishi yordam berdi.



O'zbekiston respublikasida aholi joylashishi sxemasi

Shaharlar tarmog'ining rivojlanishi respublikaning faqatgina sanoati rivojlangan tumanlarida, shuningdek, qishloq joylarida ham kichik darajadagi aholi joylarini yuqorirog'iga o'tishi orqali, qishloq joylarni shaharlar yoki shahar tipidagi posyolkalarga aylanishi orqali ham yuz berdi. Respublika shaharlari sonining tez o'sishiga ulardagi aholi soni minimal foizining 10 mingdan 7 mingga kamaytirilganining ham natijasi bo'ldi. Yangi shaharlar paydo bo'lishi asosan qishloq joylarni, avvalambor tuman markazlarini o'zgartirish hisobiga bo'ldi. Bunday o'zgarishlarning katta shaharlar tarmog'ini rivojlantirishdagi ijobiy ahamiyatini qayd etgan holda, ta'kidlash kerakki, bunda tegishli shahar tashkiliy asos shakllanishiga, shahar aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga yetarli darajada ahamiyat berilmadi. Bu «shahar hayot tarzi» ning yanada kengroq yoyilishiga, xozirgi zamon urbanizatsiyasining asosiy masalalaridan birini yechishga yordam bergan bo'lardi.



O'zbekiston respublikasida aholi joylashishi sxemasi.

Shahar va qishloq aholisi zichligi.

Shaharlarning rivojlanish jarayoni murakkab va ko'p qirralidir. Uning barcha mayda tafsilotlarigacha hisobga olish mumkin emas. Lekin bu jarayonning asosiy yo'nalishini loyihalashning dastlabki bosqichida hisobga olish lozim. Ko'pgina shaharlar bosh tarxlarning hayotiy emasligini ularda kelajakni ko'ra olinmaganligi bilan tushuntirsa bo'ladi. Shuning uchun ham ular tez eskiradi.

Bugun biz XXI asr arxitekturasi haqida o'ylashimiz mumkin. Bu faqat kelajak uchungina emas, balki bizning hozirgi kun amaliyotimiz uchun ham muhimdir.

Hozirgi zamon arxitekturasi bu faqatgina san'at emas, balki fan va texnika birligi hamdir. Bilimning ko'p sohalari yutuqlarini arxitekturachalik yuqori darajada birlashtiradigan san'at yo'qdir. Bu yerda hozirgi zamon shaharsozligi muammolari majmualarini hal etishda kuchli kompyuterlardan foydalanish talab etiladi.

Shaharlar muammolarini biror-bir bilim doirasida qolgan holda tushunish, baholash va hal qilish mumkin emas. Shaharlarni o'rganish va loyihalash turli fanlar

yondashishlari va qarashlarini integratsiya qilishni, shaharni hozirgi dunyoning fenomeni deb anglashni talab etadi. Katta shaharlar va aglomeratsiyalarning hamma yerda to'xtovsiz o'sishi bu hodisalarning ichki qonuniyatlari va sabablari haqida o'ylashga, aholi joylashuvi bunday shakllarining kamchiliklarini aniqlashga va ularning haqiqiy qiymatlarini baholashga majbur etadi.

Katta shaharlar va katta aglomeratsiyalarning muhim kamchiliklari:

- muhandislik jihozlashning qiymatlashuvi;
- transport muammolarining qiymatlashuvi;
- atrof-muhitning ifloslanishi;
- katta shaharlar aholisining tabiatdan uzoqlashuvi;

-ruhiy-fiziologik oqibatlarini (hali oxirigacha o'rganilmagan) va boshqalar.

Bundan tashqari katta shaharlar o'rta va kichik shaharlardan ishlab chiqarish kuchlarini «so'rib» oladilar.

Fransuz shaharsozligida va geografik adabiyotlarda «*fransuz sahrosi*» degan tushuncha mavjud. Bu butun mamlakat hayotiy kuchining Parij aglomeratsiyasiga jalb etilishini bildiradi. Shunga qaramasdan, ulkan iqtisodiy, ilmiy va intellektual potensialga ega aholining bir joyda to'planishining samarasi juda ulkandir va shaharlarning o'sishini

rag'batlantiradi. Katta shaharlar ishlab chiqarish kuchlarining tezda harakatga jalb qilinuvchi o'sish resurslariga egadirlar. Bu yerda sanoat, fan va oliy ta'limni kooperatsiya qilishga, ma'muriy, tashkiliy va taqsimlash funksiyalarini amalga oshirishga katta imkoniyatlar mavjud. Bu yerda turmush madaniyati darajasi yuqori aholiga xizmat ko'rsatadigan turlari keng.

Hozirgi zamon eng yirik shaharlari o'rta asr shaharlariga qaraganda juda katta va ifloslantiruvchi manbalar ta'siri ostida bo'lsa ham ularga nisbatan tozaroq, qulayroq va obodonlashtirilgandir.

Insoniyat kelajakda transport, ekologiya va boshqa muammolarning yechimlarini topishiga shubha yo'qdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ekologiya va ijtimoiy kengashi o'zining bir qarorida shaharlarning rivojlanishi muammosini yer yuzida tinchlikni saqlashdan keyingi insoniyat oldida turgan eng muhim muammo deb atadi.

So'nggi yillarda shaharlarning shiddat bilan o'sishini ilmiy adabiyotlarda "urbanizatsiya revolyutsiyasi" deb atash qabul qilingan. Hisob-kitoblarga ko'ra 2005 yilda shaharlarda planeta aholisining yarmidan ko'pi istiqomat qilishi aniqlangan. Zamonaviy demografik sharoit shuni ko'rsatadiki, butun dunyo shahar aholisining uchdan ikki qismi har yil 65 mln. yangi aholiga ega bo'layotgan rivojlanayotgan shaharlarda yashaydi. BMT taxminlariga ko'ra bu 2025 yilda rivojlanayotgan davlatlarda urbanizatsiyalashish darajasi 80 % ga yetishi mumkin.

Megapolislarda boshqacha mikroiklim shakllanadi. Turar-joy qurilmalari shamol tezligini kamaytiradi, havoning turib qolishi esa zararli bo'lgan sanoat gazlarining

yig'ilib qolishiga olib keladi. Smog – chang, tutun va tumanning aralashmasi quyosh nurining yetib kelishini kamaytirib, insonlarda jiddiy kasalliklarni yuzaga keltiradi. Shahar harorati doim ushbu geografik hudud haroratidan balandroq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. **Waldheim C.** "Landscape as urbanism a general theory". AVA Publishing USA. 2010.
 2. **Isamuxamdova D.U., Adylova L.A.** «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi». Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009 y.
 3. **Isamuxamdova D.U., Mirzayev M.K.** «Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi». O'quv qo'llanma, Toshkent, 2015 y.
 4. **Yakub Vuyek.** Мифы и утопии архитектуры 20 века. М. Stroyizdat, 1990.
- 2-ma'ruza. Kishlok xududlarining me'moriy-rejaviy yechimlarini takomillashtirish.**

Reja:

1. Kishloklarning me'moriy-rejaviy yechimlari
2. Kishlok xududlarini funksional tashkil etish
3. Kishloklarni rivojlantirishda "Obod kishlok" dasturining urni
4. "Obod kishlok" dasturining mazmun-moxiyati;
5. Kishloklarni shakllantirishda chet el tajribasi;

Tayanch iboralar: *Kishlok xududi, kishlokning me'moriy-rejaviy yechimi, "Obod kishlok" dasturi, omillar, kishlok axoli joylashuvi, namunaviy uylar.*

Eng avvalo, respublikamiz aholisining salkam yarmi qishloq hududlarida yashab kelayotganligi hamda ularning fidokorona mehnati, dehqon, fermer, chorvador va mirishkorlarning sa'yi-harakatlari natijasida dasturxonimiz mo'l-ko'l bo'layotgani "Obod qishloq" dasturining qabul qilinishida asosiy omil bo'lganligini ta'kidlab o'tish zarur. Xozirgi kunda ko'pgina qishloqlar aholining ehtiyojlarini qondira olmaydigan darajaga kelib qolgan. Natijada yashash sharoitlari, xizmat ko'rsatish darajasi, dam olishni tashkil etish, ish bilan ta'minlash masalalari nihoyatda oqsab qoldi.





Bu yz navbatida axoli ishga yaroqli qatlamining boshqa xududlarga ish va yaxshi yashash sharoitlarini izlab ketib qolishlariga sabab b'ylmoqda. Bu, albatta, katta ijtimoiy-siyosiy muammo xisoblanadi. Buni xal etish uchun esa chuqur y'ylab qabul qilingan xukumat qarorlari va katta miqdordagi mablag' talab etiladi. Mamlakatimiz Prezidentining shaxsiy tashabbusi bilan qabul qilingan «Obod qishloq» dasturi asosida k'ypgina qishloqlarning me'moriy-rejaviy yechimini takomillashtirish va ularning rivojlanish strategiyasini belgilab berish masalasi kunning eng **dolzarb masalalaridan** biri b'ylib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- 29-martdagi PQ-3630son qarori. «Obod qishloq» dasturi to'g'risidagi farmoni ijrosini ta'minlash, qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish , yo'l-transport infratuzilmasi, muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadida loyixa takliflarini ishlab chiqish xozirgi kundagi **dolzarb masalalardan** biri xisoblanadi.




Qishloq axoli hududlarini shakllantirish bo'yicha chet-el tajribasi





Brest viloyati, Berezovskiy tumani “Malik” eksperimental qishlog‘ining bosh rejasi:

a – turar-joy maydoni; b – erni ishlatish sxemasi; v- ishlab chiqarish maydoni



Rasknenskiy tumanidagi qishlokning bosh rejasi (Litva)

Moskva viloyati axoli punktlarini rejalashtirishga misol:



Tver tumani Kromnovo qishlog‘ining jamoat markazi Klubning umumiy ko‘rinishi, aksonometriya va reja.



Yekaterinburgning janubiy-g'arbiy chekkasidagi Svtdorechenskiy eksperimental qishlog'i.



Vorzogori kishlogi, Arxangelsk viloyati

Vyatskoye kishlogi Yaroslavl viloyati



Kimja kishlogi, Arxangelsk viloyati

Bolshoy Kunaley kishlogi, Buryatiya



Daniyadagi to‘la quvvatli qishloq

Germaniya tajribasi

Epfingen — kommunasi. Axolisi 2293 kishi.






Ayrolu kishlogi (Shveysariya)
Axolisi 1559 kishi.






Qishloq axoli hududlarini shakllantirish bo'yicha yurtimiz tajribasi

Mustaqillik yillarida respublikamiz qishloqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda respublika qishloqlarida zamon talabiga mos namunaviy uy-joylar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va boshqa inshootlarning yuzaga kelishi zamonaviy qishloq me'morchiligining kompleks tarzda rivojlanishidan dalolat bermoqda.




"Namangan " qishlogi bosh rejasi

Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining sharoitlarining yaxshilanishi respublikamizning agrar sektorida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan eng muhim vazifa – qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir – biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora – tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer ho'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab – quvvatlashdan iboratdir.




Номер этажа	Наименование	Площадь, м ²
1	Кухня	4,30
2	Общая ванная	11,30
3	Ванна	11,11
4	Ворота со двором	14,0
5	Уч.зеленая	1,42
6	Ванна	1,80
7	Туалет	1,80
8	Лестница	1,10
9	Сараи	1,10
10	Ванна	11,28



Номер этажа	Наименование	Площадь, м ²
2	Ванна	1,10
2	Спальня-детская	11,30
2	Спальня	11,11
4	Спальня	11,80
1	Ванна	11,11

Схема участка




Основные показатели (стены кирпичные)

Номер этажа	Наименование	Показатель
Общие конструктивные показатели		
1	Стены	кирпичные

Bir qavatli 2-xonali turar uy (“Qishloqqurilishloyiha MChJ)



Схема генерального плана



ЭКСПЛИКАЦИЯ

№ по ГП	Наименование	Кол-во
1	2	3
1	1-этажные 2-х комнатный жилой дом	36
2	1-этажные 3-х комнатный жилой дом	34
3	Хоз. постройка	70

Общая площадь участка 2.11 га


Площадь участка на один 2-х комнатный жилой дом - 202,0 м²

Площадь участка на один 3-х комнатный жилой дом - 202,5 м²

Схема участка 7.62 x 26.5м



План стен



Экспликация помещений

№ по плану	Наименование	Площадь, м ²
1	Табурет со встроенным абаком	2.40
2	Циркуль	3.96
3	Общая ванная	11.45
4	Спальня	9.8
5	Кухня	8.1
6	Салон	4.1
7	Коридор	3.52
8	Туалет	3.22

Экспликация по схеме участка

№ по плану	Наименование	Площадь, м ²
1	Однэтажный 2-х комнатный жилой дом	97.76
2	Огород	117.38
3	Теплица	2.70
4	Туалет	1.80
5	Помещение для торг	7.50

Mamlakatimizning boy va qadimiy tarixidan ma'lumki, ajdodlarimiz tomonidan mahallalarni obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish eng bebaho qadriyat va an'analardan hisoblanadi. Mazkur qadriyatlarimizni izchil davom ettirgan holda keng kulamli bunyodkorlik ishlarini barcha hududlarda amalga oshirish orqali qishloq aholisi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi, yoshlarni xayrli ishlarga da'vat etish alohida ahamiyat kasb etadi.




Qishloqlarni loyixalashda tabiiy-iqlimiy omillarning roli

Qishloq hududlarini barpo etishda uning tabiiy sharoitlarini albatta hisobga olish lozim buladi. Suv havzalariga yaqin, chiroyli rel'efga ega, kuchli shamollardan holi bo'lgan hududlar eng maqbul variant hisoblanadi. Shuningdek qishloq hududi aholisi joylashuvi tizimining yaxshi transport aloqasi bilan ta'minlangan qismidan o'rin olishi ham uning kelajakdagi rivojida muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Hudud tanlashda sanitariya-gigiyenik holatga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.



Shamol. Hududlarning shamol rejimini “shamol guli “ yordamida aniqlash mumkin. “Shamol guli” oy, mavsum, yillik qilib tuziladigan grafik tasvirdir. Unda shamolning davriy qaytarilishini va kuchini kuzatish mumkin. “Shamol guli”ning qish va yoz mavsumlari ko‘rsatgichli ikki ko‘rinishi bo‘lgani ma’qul. Shamol rejimi “Shamol guli” – shamolning ma’lum bir yo‘nalishiga qarab (qayta) ko‘p marotaba esishi va uning kuchiga qarab aniqlanadi. “Shamol guli”ni oylar, mavsumlar va yil bo‘yicha qurish mumkin.



Qishloqlarni shakllantirishning ijtimoi-iqtisodiy va demografik masalalari

Qishloq aholi joylashuvi va qishloq aholi joylari shakllanishining me’moriy –tarixiy muammolari turli miqyos bosqichlarida tashkil etiladigan murakkab ob’ektga mansub bo‘lib, funksiyalari va makoniy tavsifnomalari xar xil hududlardan iboratdir. Shuning uchun bu bo‘limda biz qishloq aholi joylashuvi, qishloq joylarini loyihalash, ishlab chiqarish komplekslari va qishloq landshaftlarini makoniy tashkil etish, qurilmalarga talablarni birlashtirdik. Qishloq xo‘jalik ob’ektlarini loyihalashning iqtisodiy va ijtimoiy asoalariga kompleks yondashuv bir qator turdosh fanlar dalillarini jalb etishni talab etadi.

Qishloq aholi joylashuvining ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish yo‘llari, uy-joy qurilishi xarakteri va rivojlanish darajasi, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi, transport tizimini ratsional tashkil etish qishloq aholisi xayotiga mos ravishda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini mexnat resurslari bilan

ta'minlanganlikni xarakterlovchi migratsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi qishloq aholi joylashuvi va qurilishi sohasida me'moriy-shaharsozlik yechimlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslanganligining ahamiyatini belgilaydi.

Aholini joylashtirish bir martalik tadbir emas, aksincha, uzluksiz davom etuvchi va o'z mohiyatiga ko'ra ancha murakkab bo'lgan jarayondir. Ishlab chiqarish va aholining yashash sharoitlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi o'zgarishlar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning uzluksiz bo'lishini talab etadi. Aynan shu jadallik, aksariyat hollarda, aholini joylashtirish strukturasi nisbatan qo'yilidigan talablar tez-tez o'zgarib turishiga hamda ushbu strukturaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining erishilgan darajasiga muvofiq holga keltirishga undaydi.

Qishloq xududini me'moriy-rejaviy tashkil etish b'yyicha tavsiyalar

O'zbekiston agrar-industrial mamlakat xisoblanib, aholi joylashuv tizimida qishloq hududlarining salmogi yaqqol kurinadi. Qishloklar tarixan shakllangan va yangidan tashkil etilgan xolda namoyon bo'ladi. Ko'pgina qishloqlar turli tabiiy-iqlimiy va landshaft sharoitlarida barpo etilganligi sababdan joylashgan hududining sharoitlariga mos ravishda shakllanganining guvoxi bo'lamiz. O'zbekiston hududida maxalliy hususiyatlardan kelib chiqqan holda bir nechta xonadondan tashkil topgan qishloqlar xam, aholisi 5-6 mingdan ortiq bo'lgan qishloq axoli hududlari xam uchraydi. Suv havzalari mavjud bo'lgan, iqlimi yumshoq, yo'llar tizimiga yaqin joylashgan xamda unumdor tuproqqa ega bo'lgan hududlarda azaldan qishloqlar rivojlanib kelgan.



O'zbekiston sharoitida turar uylarni quyidagi asosiy honalar guruhi tashkil etadi: individual yetokxonalar, umumiy xona, mehmonxona, oshxona, shaxsiy gigiyena xonalari, dahliz, ayvon, xo'jalik xonasi. Ularning kompozitsion-rejaviy yechimi mahalliy sharoitlarni va aholining turmush tarzini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Ijtimoiy-demografik, tabiiy-iqlimiy omillar asosiy mezon bo'lmog'i lozim. Xizmat ko'rsatish sohasini shakllantirish qishloq aholi punktlarini

o'zgartirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda qishloq jamoat binolarining rejaviy tuzilmasi va tipologiyasini qishloqlararo xizmat ko'rsatishning yagona tizimi –ijtimoiy, shaharsozlik, kompozitsion nuqtai-nazardan ratsional bo'lgan qishloqning jamoat markazini tashkil qilish asosida shakllantirish ko'zda tutiladi.



Qishloq xududining hajmiy-fazoviy kompozitsiyasini shakllantirish b'yyicha tavsiyalar

Qishloqlarimizga e'tibor kuchaygan hozirgi sharoitda ularning rivojlantirilish jarayonida me'moriy-rejaviy yechimi bilan bir qatorda kompozitsion jihatdan ko'rkam bo'lishi ham muhim hisoblanadi. To'g'ri, qishloq hududi uncha katta emas, aholi soni ham kam. Bu yerda asosan, 1-2 qavatli binolar quriladi va ularning ishtirokida qandaydir ajabtovur kompozitsiya yaratish ham mushkul. Boz ustiga qishloqlarda ulkan, noyob inshootlar qurishga ehtiyoj xam yo'q. Ammo bu holat qishloqlarning estetik ko'rinishi muhim emas degan hulosani keltirib chiqarmaydi. Buning uchun ozgina izlanish, kuzatish tahlil qilish kerak bo'ladi holos.






Turar joy massivlarini takrorlanuvchi loyihalar asosida shakllantirishda bir xillikdan saqlanish maqsadida shaharsozlik kompozitsiyasi asoslariga xos ayrim usullarni qo'llash kifoya qiladi:

1. Katta ko'chalar bo'ylab va jamoat markaziga yaqin hududlarda turar uylarning ikki qavatli turlaridan foydalanish;
2. Uylar qatorini shakllantirishda uylar sonining 14xonadondan oshmasligiga harakat qilish;
3. Qishloq ichkarisiga eltuvchi ko'chalar boshiga mo'ljal (oriyentir) uchun do'kon, dorixona, choyxona yoki oshxona, sartaroshxona kabi binolarni joylashtirish;
4. Binolar qatorini rang jihatidan farq qildirish;
5. Binolar tashqi ko'rinishiga, bino planirovkasi va konstruktiv yechimiga ta'sir etmagan holda bezash elementlarini o'zgartirish hisobiga o'zgacha joziba baxsh etish
6. Landshaft arxitekturasi va dizayni elementlaridan unumli foydalanish.

Qishloq hududini landshaft-dizayn tashkil etish bo'yicha tavsiyalar.

Shinam va chiroyli muhit insonni estetik tarbiyalaydi. Aksincha, saranjomlik va ozodalikdan mustasno muhit kishilarni tartibsizlikka, tunglikka, besaranjomlikka undaydi. Xar qanday joy muxiti me'morchilik ob'ektlari, tabiiy yoki sun'iy landshaft, obodonlashtirish va boshqa xar xil texnik jixozlardan tashkil topadi. Ulardan samarali foydalanish, ularning me'morchilik ob'ektlari, uy-joylar, binolar, inshootlar bilan o'zaro kompozitsion va estetik mutanosibligi, ayniqsa, qishloq muhitining shinam va fayzli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.



-O'zbekiston qishloq landshaftlari arxitekturasining shakllanishi:

-zamonaviy shaxarsozlik xududiy tizimlarini o'z ichiga olgan landshaft rejalashtirish;

-Qishloq landshaft arxitekturasini ananaviy, landshaft-ekologik, memoriy-rejaviy, kompozitsiyaviy dizayn shakllantirish va rivojlantirishning samarali rivojlantirish yo'llari tavsiya qilish.

-Qishloq aholi punktlari tarkibiy tuzilmasiga landshaft obektlarini kiritish ,

- qishloq ko'chalari va atrofidagi trotuarlar;

- mamuriy hamda va jamoat binolari oldida va atrofidagi maydonlar ;

-qishloq axoli punktlaridagi madaniyat va istirohat bog'lari;

-qishloq fuqorolar yig'ini markazi joylashgan hududlar;

-qishloq shifoxonalari va vrachlik punktlarining hududlari;

-qishloq yashilari, bog'chalari , maktablar hududlari;

-qishloq turur joylarining hovlilari;

-qishloq xo'jalik korxonalarining hududlari;

-axoli punkti ichidagi xiyobonlar va qishloq yo'llari nazardan chetda kolmasligi lozim



Qishloq landshaft arxitekturasida foydalanilishi cheklangan ko'kalamzorlarni memoriy-rejaviy va landshaft tashkillashtirish xududlariga qishloq yasli va bog'chalari, qishloq maktablari, sport inshootlari, qishloq davolash muassasalari xududlarining memoriy-landshaft yechimlarini kiritish tavsiya qilindi. Qishloq muhitini tashkil qilishda tabiiy manzaraviy elementlarining ko'lami ancha e'tiborlidir. Qishloq muhitining estetik va emotsional imkoniyatlarini oshirishda me'moriy, manzaraviy omillarni to'g'ri qo'llab, loyihalashdan tashqari, bugungi kunda quruvchilar, landshaft arxitektorlari, rassomlar, dizaynerlar va rahbar xodimlarning amaliy xamkorlik qilish zaruriyati tug'ilmoqda.

Bunday ijodiy kollektivni birlashtirish uchun masalaga endi yangicha yondashilmoqda.



Qishloq aholi hududlarini shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash, bu borada davlat hokimiyati organlari tomonidan hududlarini rejalashtirishni tashkil qilish loyihalarini ishlab chiqilishini tashkil etilishi lozim.

Qishloqdagi ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilishi, bunda: maktablar va maktabgacha tarbiya muassasalariga hizmat ko'rsatish darajasini

yaxshilash, aholisining soni 100kishi va undan yuqori bo'lgan qichik qishloq aholi hududlariga alohida e'tibor berish; qishloqdagi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilishi darajasini yaxshilash; qishloq joylarda madaniy-dam olish faoliyatini rivojlantirish; qishloqdagi jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish; qishloqdagi aholiga maishiy va savdo sotiq xizmati ko'rsatilishini yaxshilash, bu borada fermer ho'jaliklariga alohida e'tiborni qaratish; qishloqdagi turar-joy qurilishini rivojlantirish; qishloqdagi aholinig ishga jalb etilishi va ularning turmush darajasini oshirishga doir talablarni amalga oshirish masalalari aks etilishi lozim. Qishloq joylarida yakka tartibdagi qurilish uchun ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida turar-joylarning sharoitidan kelib chiqqan holda joriy qilishni ta'minlash zarur

Adabiyotlar.

1. M.K.Mirzayev Tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish O'quv qo'llanma Toshkent, 2014
2. AxmedovE.A Kompleksnoye sotsialno – ekonomicheskoye razvitiye gorodov Uzbekistana. Avtoreferat diss.na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Tashkent 1990.
3. ShNQ 2.07.01-03 Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish. Toshkent, 2003
4. M.Q.Axmedov, M.A.Talipov, N.Z.Talipjanova “Obod qishloq “ dasturi asosida O'zbekiston qishloq hududlarini modernizatsiya qilish masalalar Resp.ilmiy-texnik anjumani to'plami Toshkent, 2019
5. Sh.S.Reyimbayev, M.A.Talipov, N.Z.Talipjanova “Qishloq hududini me'moriy-rejaviy tashkil etish.” Resp.ilmiy-texnik anjumani to'plami Toshkent, 2019

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq>

<http://uza.uz/uz/documents/obod-qishloq-dasturi-to-g-risida-29-03-2018>

<http://tehne.com/event/arhivsyachina/arhitektura-germanskoy-demokraticeskoy-respubliki>

https://w.histrf.ru/articles/article/show/landshaftnaia_arhitektura

<https://www.twirpx.com/file/1545748/>

<https://m.colta.ru/articles/art/7167-cto-sluchilos-s-landshaftnoy-arhitekturoy>

3-ma'ruza. Landshaft arxitekturasida innovatsiyalar .

Reja:

1. “Landshaft” tushunchasi
2. Landshaft arxitekturasining rivojlanish boskichlari
3. Xududlarni landshaft rejalashtirish masalalari

4. Uzbekistonda va chet mamlakatlarda landshaft arxitekturasining xolati

5. Landshaft dizayni

Tayanch iboralar: tabiiy va antropogen landshaft, Frederik Olmsted, milliy boglar, landshaft arxitektorlari maktabi, E.Govardning bog'-shahar g'oyasi, landshaft rejalashtirish, landshaft dizayni.

Geografik tushunchada *landshaft* bu tabiiy chegaralar bilan o'ralgan bir jinsli quruqlik maydoni bo'lib, bu chegaralarda landshaftning tabiiy elementlari o'zaro bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan yagonalikni tashkil etadi. Bir jinsli xududlar – tayga, tropik, o'rmonlar, tundrada –landshaftlarida mayda tabiiy birliklar – geografik landshaftning tarkibiy qismlari mavjud. Zamonaviy landshaft arxitekturasida tabiiy va antropogen landshaft tushunchasi ajratiladi.

Tabiiy landshaftlarning asosiy turlari va ko'rinishlari

Bir jinsli landshaftlar	Bir jinsli landshaftlar turlari va xillari	Landshaftlarning aralash turlari
Tog'	Baland tog' O'rtacha tog' Adir	Tog'-suvli Tog'-o'rmonli Tog'-dashtli
O'rmon	Tropik o'rmonlar Tayga o'rmonlari Jungli va boshqalar	O'rmon-dasht O'rmon-tundra O'rmon-tog'
Suvli	Okean Dengiz Quyida Daryo	Tog'-okean Tog'-dengiz O'rmon O'rmon-daryo
Cho'l	Qumli Chakalakzorlar va boshqalar	Tog' qazilmalari yerlari
Dasht	Tundra Cho'l va boshqalar	O'rmon-dasht

Ammo yer yuzida inson tegmagan tabiiy landshaftlar juda kam. Xo‘jalik faoliyati jarayenida ayrim tabiiy komponentlarni birinchi navbatda o‘simliklarni, tuproqni, suvni, xayvonat dunesini o‘zgartiradi. Bunday o‘zgartirishlar landshaftda qaror topgan aloqalar va tabiiy komponentlar o‘zaro ta‘sirini buzadi.

Hududlarni o‘zlashtirish zarurligi va insonning tabiat ichiga singib borishi landshaftning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, yo‘llar tarmoklari va elektr uzatish liniyalari, zavodlar, poselkalar vujudga keladi. Ya‘ni insonning aralashuvi bilan landshaft antropogen – inson o‘zgartirgan landshaftga aylanadi.

Antropogen landshaftlar insonning xo‘jalik faoliyati mavjud bo‘lgan davrlardan beri bor. Dastlab ular yer landshaftlarini shakllanishining inson aralashuvi bilan o‘zgarib ketdi. Bu xodisalar jadallashmoqda va o‘zgarish jarayeni xamda biogen landshaftlardagi o‘zgarishlar ob‘ektiv muqarrardir.

Antropogen landshaftlar tasnifi

Sinflar	Turlar	Yerlardan foydalanish turlari
Qishloq xo‘jalik landshaftlari	Dala O‘tloq-yaylov Bog‘ Aralash	Haydalgan yer, dala Pichan o‘rish va yaylov Bog‘lar va uzumzorlar Ko‘p yarusli tropik mamlakatlar
O‘rmon landshaftlari	Shartli- tabiiy Ikkilami (xosilaviy) Madaniy o‘rmon	Sun‘iy ekilgan O‘rmon yerlari
Suv landshaftlari	Sun‘iy dengizlar Suv omborlari	Sun‘iy yaratilgan suv xavzalari

Texnogen landshaftlari	Texnik Buzilgan landschaftlar	Avtomobil yo‘llari, gidrostansiyalar, qazilmalar
Aholi yashaydigan landshaftlar	Urbanizatsiyalashgan	Shaharlar va qishloqlar, qishloq-ho‘jalik mahsulotlari ekilgan erlar va boshqalar

TABIY VA ANTROPOGYeN LANDSHAFTLAR



1 - Tabiiy landshaftlar:



a –Chimyon Tog‘lari, O‘zbekiston; b – Boltiq dengizi, Olmoniya; v –Misr cho‘llari, g – Rossiya o‘rmonlari, d – Tinch okeni qirg‘og‘i, Kaliforniya; ye – Alp toglari, Shveysari

- Antropogen landshaftlari:

1– q/xo‘jalik landshafti, Angliya, 2 – shahar landshafti, Melburn; 3 - q/xo‘jalik landshafti, Indoneziya; 4 – shahar landshafti, Venetsiya; 5 – qishloq landshafti, Olmoniya; 6 – texnogen landshafti, Avstriya

Shuningdek, urning biogen landshaflarning miqdoriy qisqarishi

insoniyatning bundan keyingi yashashini ta‘minlashdagi ularning rolining jiddiy darajada qisqarishga olib keladi. Biroq tabiiy muxitlarni saqlab qolishda va antropogen ta‘sirlarni boshidan kechiruvchi landshaftlarni o‘zgarishida fakat saqlanib qolgan tabiat «namunalari»ni o‘rganibgina qolmay, balki o‘zgarturuvchi landshaflarda ekologik muvozanat qonunlarini o‘zlashtirib olish kerak. Bu yashash qobiliyatiga ega va barqaror landshaftlarni – insonning kelajakda yashashi uchun zaxira imkoniyatini shakllantirishning yagona yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

Bir qator sabablarga ko‘ra XIX asr o‘rtalari ijtimoiy taraqqiyotning tarixdagi o‘ziga xos davri xisoblanadi.

1. Bu davrda Yevropadan xukmdor sinf erishgan inqilob yakunlanib, sanoat va savdo taraqqiyotining yangi davri kirib keldi.

2. Yevropa kapitalizmining rivojlanish jarayoni Osiyo va Afrikadagi koloniyalarning egallanishi bilan parallel o‘tib bordi.

3. G‘arb dunyosining ulkan davlati - AQSh o‘zining mustaqilligini mustaxkam saqlab, iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytira bordi.

4. AQShda o‘tib borayotgan, ayniqsa sanoat taraqqiyoti atrof-muhit va tabiatga tezkor sur‘atlar bilan salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi.

5. Qirqilgan o‘rmonlar, yer osti qazilma boyliklarini ayovsiz egallash, qirilib borayotgan xayvonot dunesi, sanoat chiqindilari bilan zaharlanayotgan daryolar, ko‘llar - davrning daxshatli voqealariga aylana borib, insoniyatdan aql-zakovatni ishlatishni talab qildi.

6. Ilk bor kun tartibiga inson bilan uni o‘rab turgan atrof-muxit, landshaft va tabiat munosabatlarini boshqarish va yo‘lga solish masalalari qo‘yildi.

Shu tariqa XIX asr landshaft arxitekturasi shakllanishida o‘ziga xos davr boshlandi.

Landshaft arxitekturasi taraqqiyotida asosiy burilish eng avvalo **Frederik Lou Olmsted** nomi bilan bog‘liqdir. U AQShda XIX asr yarmining ulkan siymosi, yozuvchi, jamoat arbobi, tadbirkor, landshaft arxitekturasi to‘liq ma‘nodagi zamonaviy asoschisi tarzida tanildi.

Frederik Lou Olmsted taxminan 500 ta istirohat parklarini loyihalashda faol katnashdi. U landshaft arxitekturasining bir qator magistral yunalishlarini pioneri hamdir. Olmsted tamoman yangi turdagi shaharlar istirohat parkini yaratdi; Bostonda shaharni ko'kalamzorlashtirishning birinchi yirik tizimini amalga oshirdi; Chikago yaqinida Riversayd nomli bog'-shahar bunyod etdi; universitet shaharchalarini, Chikagoda «Kolumbo» butun dunyo halqaro ko'rgazmasini, AQSh markazi - Vashingtonda Kapitoliy atrofi landshaft loyihalarini ishlab chiqdi. Olmsted amalga oshirgan ishlarning son-sanog'i yo'q. Biroq, eng muhimi shuki,

y ilk bor milliy parklarni tashkil qilish g'oyasini ilgari surdi va ularning dastlabkilarini yaratdi. AQShdagi Yosemite vodiysidagi «Maripoza» va «Niagara» sharsharasi shular jumlasidandir.

Markaziy park loyixasidagi asosiy g'oya - Nyu-Yorkdek rivojlangan shahar markazida qo'l tegizilmagan xaqiqiy tabiat landshaftini yaratish edi. Parkning me'moriy rejasi avvalgi mavjud ingliz peyzajli bog'lardan tubdan farq qilardi.

Agar ingliz bog'larning asosiy g'oyasi tabiiy peyzajni suniy shakllantirish bo'lsa, Olmsted va Volarning g'oyasi quyidagicha edi:

- shaharlardagi mavjud tabiiy peyzajlarni saqlab qolish,
- ulardan samarali foydalanishni tashkil qilish,
- ularning eng muhim va qulay tomonlarini namoyish etish.

Biroq, bu g'oya Olmstedga park hududini foydali qismlarga bo'lishga, zarur yo'llarni o'gkazishga, unda dam olishga mo'ljallangan binolar loyixalashga xalaqit bermadi. Jumladan, u Markaziy parkda «Moll» deb nomlangan mahobatli va tantanavor uch qatorli xiyobon hamda bayramlar o'tkaziladigan

«Terrasa» loyihaladi. Parkdagi mavjud ko'llar esa shahar suv quvuri uchun ichimlik suvi rezervuarlari bo'lib hizmat qildi.

AQShning milliy parklari. «Yovvoyi» tabiatning eng jozibador manzaralari va landshaftini maqsadli tarzda tomosha qilish, bu tomoshadan foyda ko'rish va sayyohlar harakatini yo'lga solish g'oyasi AQShda birinchi tabiat qo'riqxonalarini - Kaliforniyaning Yosemite vodiysida va «Maripoza» daraxtzorlaridagi milliy parklarni yaratishga asos bo'ldi. Ana shunday qo'riqxonada quriishidagi milliy parklarni loyihalash va ularda dam oluvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish AQShda landshaft arxitektorlarining yangi faoliyat sohasiga aylandi.

Natijada AQSh milliy parklarining zamonaviy tizimi dunyoda eng rivojlangan xizmat turlari qatoriga kirdi. Ushbu tizim asosan uch xil - *tabiiy, tarixiy va rekreatsiya* toifalaridagi ob'ektlardai iborat. Ana shu uchta toifa milliy parklarning 23 xilini, masalan, milliy daryolar, milliy jang maydonlari va milliy yodgorliklarni o'ziga birlashtiradi.

Milliy parklarning ko'lamlari 40 gektardan to 100, hatto 1000 kvadrat kilometrgacha yetib boradi.


1916 yili AQShda milliy parklar xizmatining maxsus davlat muassasasi tashkil etilib, unga 1980 yilda umumiy maydoni 321495 kilometr kvadratga teng bo'lgan 337 ta milliy parklar kirgan.

Bundan tashqari, AQShda alohida shtatlarning va hatto xususiy shaxslarning ham yuzlab parklari mavjud. Ushbu parklar orasidan jumladan, dunyoga mashhur «Niagara» sharsharasi ham joy olgan.

Taqqoslash uchun aytish mumkinki, 1980 yillarning oxirida sobiq, SSSRda bor-yo'g'i 15 tagina. ittifoqdosh respublikalarning milliy parklari bo'lgan. AQShda esa bu davrda 100 ta milliy tabiat parklari mavjud edi.

AQShning milliy parklari o'ta namunaviy tashkil etilganligi bilan ham ajralib turadi. Ularda nafaqat avtomobil harakati, balki piyodalar harakati ham keskin tartibga solingan. Parklarning tabiiy boyliklari va manzarasini tomosha qilish va dam olish uchun maxsus maydonchalar jihozlangan, kempinglar va mehmonxonalar qurilgan.

AKShning Vayoming shtatidagi «Shayton minorasi» nomli milliy yodgorlik-parki.



Hatto birgina mo'jaz «Shayton minorasi» deb nomlangan milliy parkda ham barcha xizmat turlarini yaqqol ko'rish mumkin. Parkka kirish oldidan tomoshabin u haqidagi barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

Sayyoh mashinasini maxsus joyda qoldirib, o'zi orasta va soz yo'laklardan «Shayton minorasi»ni tomosha qilgani boradi. Parkda pikniklar uchun maxsus joylar mavjud.

Olmstedning faoliyati vaqt va zamon ruhiga tamoman mos tushgan edi:

- XIX asrning ikkinchi yarmi nafaqat tabiiy landshaftlar qadrini tushunishni boshlab berdi, balki bog' va parklarning qurilishini asosan shahar hududida sezilarli darajada kuchaytirdi.

- Yangi qurilgan parklar tashqi ko'rinishi, uslubiy xususiyatlari va funksiyalari bo'yicha turli-tuman edi.

- Bog'larni keskin «fransuzcha», «inglizcha», «italyancha»ga bo'lish xam yuqola boshladi. Ular bir biriga qo'shib ketdi.

Xullas, park yaratuvchilar ko'p yillik jahon bog'-parkchilik san'ati taraqqiyotining barcha tarixiy tajribasi va vositalaridan keng foydalandilar.

XIX asr o'rtalari ko'kalamzor muhitlarning ihtisoslashgan yangi turlarining vujudga kelishi bilan belgilandi:

- XIX asr boshidayok Parijda va Londonda (Rijent-park hududida) ilmiy asosda tashkil etilgan birinchi zooparklar qurildi.

- Asrning ikkinchi yarmida esa zooparklar Ovrupo, Osiyo va Amerikaning kurgina yirik shaharlarida xam paydo bo'ldi.

- Zooparklar Moskvada 1864 yilda, Peterburga 1865 yilda tashkil topdi.

- 1851 yilda Londondagi Gayd-parkda birinchi Umumjahon ko'rgazmasi ochildi. U o'zining arxitekturada yangi yo'nalishni boshlab bergan Xrustal (billur) saroyi bilan dong taratdi. Bu saroy mavjud park hududiga qurilsada, tashkil etilgan ko'rgazma landshaft arxitektorlarining yana bir faoliyati - ko'rgazmalar hududini loyihalash sohasining vujudga kelishiga katta turtki bo'ldi.

- Landshaft arxitekturasi XIX asr oxiriga kelib arxitektorlar faoliyatining tamoman yangi sohasi shaklida ishonchli da'vo bilan maydonga chikdi. Urushdan keyingi o'n yilliklarda landshaft arxitekturasi muammolariga malakali qiziqish keskin oshdi. Buning isboti soha bo'yicha ko'p sonli ilmiy-uslubiy tadqiqotlar va nashr ishlarining olib borilishidir. Turli tadqiqotchilar va mutaxassislarining landshaft arxitekturasi muammolarini yechishga qo'shgan hissalarini aniqlash juda murakkab ish.

Biroq bu sohada ishlari tanilgan mutaxassislarni eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. Taniqli landshaft arxitektori, IFLAning asoschilaridan biri B.Kolvin o'zining «Yer va landshaft» asarini ilk bor 1948 yilda nashr etdi. Kaliforniyadagi Berkli universitetining professori Luns «Landshaft arxitekturasi ga kirish» kitobini 1975 yildan boshlab bir necha bor qayta chop ettirdi. Rossiya landshaft arxitekturasi ning rivoji L.S.Zaleskayaning nomi bilan uzviy bog'likdir. U sobiq SSSRda birinchi bo'lib «Landshaft arxitekturasi» darsligini yaratdi.

Utgan asrning boshlaridayoq, landshaft arxitekturasi malakali mutaxassislar tayyorlashga zarurat tug'ilganligi sezildi va nihoyat 1901 yilda AQShning Garvard universitetida landshaft arxitektorlarining birinchi maktabi ochildi. AQSh tez orada yangi ixtisoslikni egallamda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Landshaft arxitekturasi o'z faoliyatini tinmay kengaytira borib tobora keng maydonlarni egalladi va muhitni tashkil etishning turli-tuman vazifalarini yechish bilan shug'ullandi. 1907 yili undan yana bitta me'moriy ixtisoslik *hududlarni rejalashtirish* ajralib chikdi. XX asr boshida sanoati rivojlangan qator davlatlarda landshaft arxitekturasi rivojlantirish zarurati keng jamoatchilik ichida xam tan olindi. AQShdan so'ng tezgina Angliya, Fransiya, Yaponiya, Avstraliyada bebaho tabiat landshaftlarini saqlab qolish, tabiat muhitini rejali ravishda rivojlantirish, shaharlarning to'xtovsiz uzgarish usuli ustidan nazorat o'rnatish harakati yuzaga keldi.

1898 yildayok E.Govard «Kelajak bog'-shahri» nomli mashhur kitobini chop etdi. Unda shahar muhitiga tabiatni keng me'yorda kiritish g'oyasi ilgari surildi. Govardning fikricha, yirik shaharlar atrofi qishlok xo'jalik ekinlaridan iborat yashil kamar bilan aylantirilishi kerak. Ushbu kamarga esa markaziy shahar bilan temir yul

orqali bog‘langan bog‘-shaharlar xalqasi qo‘shilishi kerak. Govardning nazariyasi o‘z tarafdorlarinn topdi va 1903 yilidayok Angliyada «Birinchii bog‘-shaharlar kompaniyasi» vujudga keldi. Ushbu kompaniya London atroflarida Lechvort bog‘-shahrini qurishni boshladi. 1914 yilda shahar aholisining soni 9 mingga yetdi. Biroq bog‘-shaharlar g‘oyasi amaliyotda keng joriy etilmadi, ularni qurish murakkab va kam nafli ish bo‘lib chiqdi. Bog‘-shahar g‘oyasi to‘laroq tarzda 1920 yili Avstraliya poytaxti Kanberra shahrini rejalashtirishda amalga oshirildi. Kanberra shahri sanoatsiz, asosan ma‘muriy markaz tarzida loyihalangan bo‘lib, o‘zida (zamonaviy atama bilan aytganda) «ekologik toza» shahar g‘oyasini aks ettirgan edi. Bog‘-shaharlar g‘oyasi amalda juda kam ob‘ektlarni loyihalash va tiklashdagina qo‘llanildi xolos. Ushbu g‘oyani hayotga joriy qilish yo‘lidagi urinishlar bilan bir qatorda keng hududlar muhitini tashkil etish va rejalash bo‘yicha tub o‘zgarishlar qilish g‘oyalari ham pishib yetildi. 1920 yillarda ana shunday katta hududlar bilan bog‘liq g‘oyalarni rivojlantirish ishlari amaliy tuzila boshladi va bu yo‘nalish yangi ixtisoslikning yuzaga chiqishiga sabab bo‘ldi.



45-chi rasm. Govardning kelajak “bog‘ shaxar” rejalari:

a – shahar-bog‘ modeli, b – shahar-bog‘ va uning atroflarini asosiy hududlari,

В – shahar-bog‘ va uning yo‘ldoshlari

Landshaft arxitekturasi bilan uzviy bog‘langan va hududiy rejalashtirish (rayonnaya planirovka) deb nomlangan bu yangi ixtisoslikning oyoqqa turishida ingliz arxitektori P.Aberkrombning roli kattadir. Uning

1922 yilda ishlagai Lankaster ko‘mir koni havzasini rejalash loyihasi arxitekturaning bu yangi sohasidagi dastlabki ishlardan biri bo‘ldi. Aberkromb bu ishda kon havzasi landshaftini tadqid qilishga muhim e‘tiborni qaratdi. U tabiiy landshaftlarni saqlab qolish, insonning atrof muhitga ta‘sir faoliyatini mantiqiy cheklash harakatchilaridan biri buldi. 1933 yilda u o‘zining asosiy g‘oyalarini «Shaharlar va qishloq joylarini rejalash» nomli ma‘ruzalari to‘plamida chop ettirdi.

XX asrning birinchi yarmi arxitektura, shaharsozlik va landshaft arxitekturasi sohasidagi yangi yondoshuvlar va jadal izlanishlar bilan ajralib turdi. Biroq, bu vaqtdan to ikkinchi jahon urushiga qadar ham, landshaft arxitekturasi jamoatchilik hurmatiga hali to'liq erisha olmagan. Shunga qaramasdan, u shaharsozlik nazariyasi va amaliyotining uzviy qismi tarzida to'xtovsiz rivojlanishda bo'ldi.

XX asrning birinchi yarmini landshaft arxitekturasi miqdoriy o'suvchi davri deb ham xisoblash mumkin. Aynan ushbu davrda landshaft arxitekturasi faoliyati sohasiga ochiq maydonlar muhitining yangidan-yangi xillari kelib qo'shildi. Landshaft arxitektorlari shahar bog'lari va ko'rgazmalar hududi bilan izma-iz tarzda sport parklari, yo'llar va transport inshootlari, binolarning tomlari, buzilgan hududlarni qayta tiklash kabi loyihalarni ishlay boshladilar.

Landshaft arxitekturasi taraqiyotidagi yangi muhim davr ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlandi. U eng avvalo insoniyatning tabiiy muhitga ko'rsatayotgan ta'sirining keskin o'sib borishi bilan bog'liq edi. Birinchi ishora Yaponiyaning Xirosima va Nogasaki shaharlaridagi kuchli yadro bombalarining portlashlari bo'ldi. Insoniyatning tinimsiz va jadal texnik faoliyati tabiatga behisob zararlar keltira boshladi. Yer sharidagi yirik tropik o'rmonlarning yo'qolishi va qumloq cho'l hududlarini egallash tezkor sur'atlarda olib borildi. Okean suvlari ifloslanmoqda, yer atmosferasining tarkibi va tuzilishi o'zgarib bormokda.


Landshaft arxitektorlarining ijtimoiy faolligi ham oshib bordi.

1948 yili Angliyaning Kembrij shahrida to'qqizta Yevropa davlatlarining vakillari yig'ilishib, Landshaft arxitektorlarining xalqaro federatsiyasi (IFLA)ga asos soldilar. Ixtisoslik tan olinib, u OON qoshidagi xalqaro mehnat tashkilotining ixtisosliklar ro'yxatiga rasmiy tarzda kiritildi. Bugungi kunda jaxondagi 50 dan ortiq davlat vakillari IFLA faoliyatida qatnashmoqdalar, ularning ko'pida landshaft arxitektorlari tayyorlanmoqda.

Shunday qilib, hozirgi kunda landshaft arxitekturasi butun dunyod o'zining rivojida yangi darajalarda turibdi. U muhim mustaqil me'moriy kasb sifatida tan olindi va unga ochiq muhitlarni

takomillashtirish kabi katta ishlarni qilish va muammolarni yechish masalalarini xalqaro etish topshirildi. Mustakillik yillarida mamlakatimizda landshaft arxitekturasi va dizayni sohasida kulgina ijobiy uzgarishlar buldi. Masalan, kanalbuyi xududlarini me'moriy-landshaft tashkil etish, shahar chekasida yashil xalka xosil kilish, sanoat maksadlarida uzlashtirilgan karerlar xududlarini yashil xududga aylantirish, kucha landshaft dizayni muxitini shakllantirish, mavzuli bog'larni barpo etish kabilar shular jumlasidandir.

Janubiy Koreya tajribasi







Landshaft dizaynini shakllantirishda uning kurgina tarkibiy kismlarini tugri tanlash muxim masala xisoblanadi. Masalan :

1. Kichik me'moriy shakllar;
2. Xaykaltaroshlik namunalari;
3. Tabiiy va sun'iy suv xavzalari va kurilmalari;
4. Yoritgich moslamalari;
5. Urindiklar;
6. Urnalar (axlatdonlar)
7. Yer yopma ashyolar;
8. Kursatgichlar;
9. Usimliklar.

Yukorida kursatilgan landshaft dizayni elementlaridan tashkari turli xildagi instolyatsiya kurilmalaridan xam foydalanish urf bulib bormokda. Ular xududning


mazmun-moxiyatini ochib berishga xizmat kiladilar. Bu borada bir kator rivojlangan Yevropa va Osiyo mamlakatlari (Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya) tajribasi kul kelmokda.

Rossiya tajribasi



German





Xulosa kilib aytadigan bulsak, xududni me'moriy-landshaft tashkil etish orkali biz insonlarga kulay yashash va dam olish muxitini yaratishga muvaffak bulamiz. Yaxshi xordik chikargan, estetik zavk olgan insonning esa kayfiyati a'lo va salomatligi mustaxkam buladi. Bu, uz navbatida , kishilarning mexnat kobiliyati yukori bulishiga xamda ularni mamalakat iktisodiyoti rivojiga xissa kushishiga zamin buladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. **Waldheim C.** "A reference manifesto" AVA Publishing USA. 2011.
2. **Isamuxamdova D.U., Adilova L.A.** «Shaharsozlik asoslari va landschaft arxitekturasi». Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009.
3. **Adilova L.A.** Landschaft arxitekturasi: I qism, o'quv qo'llanma, – Toshkent: IPTD "Uzbekistan", 2009.
4. **Adilova L.A.** Landschaft arxitekturasi: II qism, darslik– Toshkent: TASI 2009.
5. Contemporary landscape architecture. Köln, 2008
6. **Ojegov S.S.** Is-to-riya land-shaft-noy ar-xi-tek-tu-ry. M., 2004
7. **Pregill P., Volkman N.** Landscapes in history: design and planning in the Western tradition. 2nd ed. N. Y., 1999

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR

Mavzu. Ishbilarmonlik markazi – City ning maketli eskiz loyixasini yaratish.

Reja:

1. Shaharning me'moriy-badiiy ko'rinishini tashkil etuvchi asosiy omillar;
2. Me'moriy ansambl, dinamika, shakl va boshqa xususiyatlar;
3. Ishbilarmonlik markazi tarkibiga kiruvchi ob'ektlar;
4. Ishbilarmonlik markazi xududini funksional zonalarga bulish;
5. Ishbilarmonlik markazining memoriy-badiiy yechimini shakllantirish.

Tinglovchilarda shaharning me'moriy-badiiy ko'rinishininig ma'nodorligini saqlab qolishdagi asosiy omillar, me'moriy-badiiy ko'rinishda amal kiladigan kompozitsion konuniyatlar , shaharning alohida elementlarining me'moriy-badiiy yechimlarini hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish zarur.

Shahar maydonlari, suv havzalari, me'moriy yodgorliklar, ritm, metr, o'xshashlik, nyuans, kontrast, aksent, assimmertik kompozitsiya, proporsiya, rang, me'moriy shakl, siluet, masshtablilik tushunchalarini tushunib yetish ushbu amaliy ishning asl moxiyatini tashkil etadi. Tinglovchilarga dastlab ishbilarmonlik markazi sxemasini maketli modellashtirish usulida yaratish maksadida ma'lum bir xudud chizmasi takdim etiladi. Tinglovchi xududni funksional zonalarga ajratib chikadi. Funksional zonalar va ularda joylashishi lozim bulgan ob'ektlar ruyxati avvaldan tinglovchiga yetkazilgan buladi.

Keyingi boskichda tinglovchiga tayyor bino va inshootlarning 1:2000 masshtabdagi maketchalari takdim etiladi. Ushbu maketchalarni tinglovchi avvaldan uylab rejalashtirgan me'moriy-fazoviy kompozitsiya asosida joylashtirib chikadi. Bunda bir vaktning uzida xududda kulay sharoit yaratilishiga xamda guzal kompozitsion yechimning shakllanishiga erishish masalasini xal etish talab kilinadi.

Ushbu loyixa kichik guruxlarda bajariladi. Gurux a'zolari maslaxatlashgan xolda xududni shakllantiradilar. Sungra gurux sardori ushbu loyixaviy yechimni ximoya kiladi. Ximoya tugagach savol-javoblarga vakt ajratiladi. Bu jarayon yakunlangach pedagog tamonidan loyixaning ijobiy va salbiy tomonlari taxlil kilinadi.

Muxokama tugagach, xar bir gurux a'zosi loyixa yechimini foto kurinishini kogoza chikartirilgan nusxasini fan buyicha umumiy xisobotiga ilova tarzida kushib kuyadi.

Mavzuga oid savollar

1. Me'moriy-makoniy kompozitsiyaga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Turar-joy tumani va kichik tumani qurilishining badiiy xususiyatlari nima?
3. Metr, ritm tushunchalari nimani anglatadi?
